

## QO'SHMA VA KO'CHIRMA GAPLARDA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK AHAMIYATI

*Aziza Navro'zova Aslonovna*

*Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti*

*2- bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy yo'nalishi hisoblangan punktuatsiya haqida mulohazalar yuritilgan. Qo'shma gap va ko'chirma gap qismlari orasida tinish belgilarining ishlatilishi va ularning pragmatik ahamiyati badiiy adabiyotdan misollar keltirilib izohlangan. Mazkur muammolar misollar asosida tahlilga olinib yechim berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** punktuatsiya, pragmatika, qo'shma gap, ko'chirma gap, muallif gapi, vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul, tinish belgilarining ishlatilishi.

**Аннотация:** В данном исследовании приводятся комментарии к пунктуации, которая считается основным направлением языкознания. На примерах из художественной литературы поясняется употребление знаков препинания между частями сложного предложения и цитатой, их прагматическое значение. Эти проблемы были проанализированы на основе примеров и попытались предложить решения. This study discusses punctuation, which is considered a major area of linguistics. The use of punctuation marks between compound and compound sentences and their pragmatic significance are explained by citing examples from fiction. These problems are analyzed and solutions are attempted based on examples.

**Ключевые слова:** пунктуация, прагматика, сложное предложение, кавычное предложение, авторское предложение, запятая, тире, двоеточие, точка с запятой, употребление знаков препинания.

**Annotation:** This study discusses punctuation, which is considered a major area of linguistics. The use of punctuation marks between compound and compound sentences and their pragmatic significance are explained by citing examples from fiction. These problems are analyzed and solutions are attempted based on examples.

**Keywords:** punctuation, pragmatics, compound sentence, quoted sentence, author's statement, comma, dash, colon, semicolon, use of punctuation marks.

Qo'shma gapning uch asosiy turida ham (biriktiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gaplar mustasno) sodda gaplar orasida tinish belgilari ishlatiladi. Teng va tobe tarkibli qo'shma gaplar orasida bog'lovchi vositadan oldin yoki keyin

vergul, ohang yordamida bog'langan gaplar orasida vergul, nuqtali vergul, tire, ikki nuqtaning ishlatilishi kuzatiladi.

**Vergul:**

- zidlov bog'lovchisi bilan bog'langan qo'shma gaplar orasida:

Vatanlar, vatanlar, mayli, gullasin, Bog' unsin manguk muzda ham, ammo, Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo! (A.Oripov) Bobolardan so'zladim, ammo bir zot borkim baridan suyuk (A.Oripov);

- ayiruv bog'lovchisi bilan bog'langan qo'shma gaplar orasida: U hozir hammaning kallasini g'ovlatgan shum xabarniyo hech o'ylamayapti, yo o'zini «bu gapning menga sira daxli yo'q» deb ko'rsatmoqchi. (A.Muxtor) Dam orqadagi qizlarning shivir-shiviri eshitiladi, dam eshikning g'irchillashi asabga tegadi;

- inkor bog'lovchisi bilan bog'langan qo'shma gaplar orasida: Na o'zi o'qidi, na birovga berdi;

- qiyoslov bog'lovchisi bilan bog'langan qo'shma gaplar orasida:

Hayot quyosh bilan go'zal, inson esa xulqi bilan. (ShukrulloJ Oy tunda kerak, aql esa kunda kerak (Maqol);

- vazifadosh bog'lovchi yordamida bog'langan teng munosabatli qo'shma gaplar orasida: Yo lovchining o'zi ichkariga kirdi-yu, ikki ko'zi tashqarida qoldi (Omori Muxtor);

- tobe munosabatli qo'shma gaplar orasida: Choyxona qurilibdiki, shu joy uniki. (O'.Umarbekov) Biiiasizmi, ustozim kim;

- qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar orasida: Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukik, sening ziyoratingga

keldim, sultonim. (Fitrat) Bola edik, tanlar olov, qalb qaynoq, ko'zlar o'tkir, dillarsof, erkin-erkin o'ynardik (H.O.);

- bir necha tobe gapli qo'shma gaplar orasida: Xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo'lsin, turmushimiz farovon holsin, mustaqilligimiz barqaror bo'lsin. (O.Sharafiddinov) Qalbingda yonsa ham bir dunyo aiam, qaddingni buksa ham olam-olam g'am, boshingga ayriliq solsa ham soya, ko'ngling g'ash bo'lsa ham hijron tufayli, yuzlaring za'faron bo'lsa ham, mayli, onajon, ko'zingdan oqizma ko'p yosh (U.);

- bir necha hokim gapli qo'shma gaplar orasida: Chindan ham odam yurakdan yayrab kulsa, sog'ligi yaxshilanadi, yengil tortadi, ruhi tetiklashadi, ishtahasi ochiladi, umri uzayadi. (G'.G'ulom) G'anim kelsa, xonumoni kul bo'lur, o'z yurtida pachaqlash ma'qul bo'lur (G'. G'ulom);

- aralash turdagi qo'shma gaplar orasida: Mayli, bizga saboq bolmasin, lekin dunyo biz bilan tugamaydi, ortimizda farzandlarimiz bor, bu yozuvlar loaqal o'shalarning kuniga yarab qolar. (M.M.Do'st)

Feruzaning joydirashiga ko'pda e'tibor bermaydi, biroq kampir shu qadar sezgirki, suhbatdoshi ne ko'ydaligini darrov bilib oladi (M.Hazratqulov);

- birin-ketin yoki bir paytda sodir bo'lgan voqealarni, zidlikni bildirib ohang yordamida birikkan sodda gaplar orasida: Ruboiyni ichida o'qidi, yuzini tabassum qopiadi. (Oybek) ish oldirmas, ishkal o'ldirar. (E.Vohidov) Sevgi, menga bo'yama, Mehring bilan siylama. (M.Yusuf)

Yaxshilik ahli jahondan istama Bobur kabi, Kelmadi hargiz, netayin, ul zamondin yaxshilik. (Bobur)

### **Ikki nuqta:**

- ohang yordamida birikkan qo'shma gaplarda keyingi gap oldingi gapdan anglashilgan sababni aniqlashtirganda: Birdan u o'zini idora qilolmay qoldi: qo'llari bo'ysunmay olg'a cho'zildi, qaynoq qon vijir-vijirto'lqin urib tomirlari bo'ylab yugura ketdi. (X.Sultonov) Sizdan tashvishlandim: ba'zi vaqtda haddan tashqari o'zingizga ishonasiz. (Oybek) Qora bo'yoqning suratdan suratga o'tib borishi meni hayratga soldi: mavhumlik tasvirda ham, bo'yoqda ham sezilardi (N.EshonquI);

- qo'shma gap qismlari ohang yordamida bog'lanib, keyingi gap oldingi gap mazmunini izohlab, to'ldirib kelganida: Elning bir so'zi bor: o'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma. (Oybek) O'zingizga malum: qadr tanqis. (Oybek) Shu fe'llari yaxshi: hech kimni birovning oldida behurmat qilmaydilar. (A.Qahhor) Bildi ota: foydasizdir qiynamoq. (H.H.) Odamlar bor: bo'rini ham o'rgatar qo'lga, odamlar bor: o'z bolasin sololmas yo'lga;

- aralash turdagi qo'shma gaplar orasida: Kampirning katalakday hovlisi misoli tandir: quyosh lovullab qizdiradi-yu, atrof uylar bilan o'ralgani uchun, qilt etgan shabada yurmaydi. (M.Hazratqulov)

### **Tire:**

- ohang yordamida birikkan qo'shma gap qismlari orasida payt, shart munosabati bo'lganda: Davlat tinch - xalq tinch. (Oybek) Tiriksan - ko'rganing g'animat. (Oybek) Maqtanchoq bolmang – xijolat tortmaysiz. (Maqol) Birovga ayta ko'rmang - ikkovimiz ham baloga qolamiz (S. Ah mad);

- qo'shma gap qismlari orasida zidlik munosabati bo'lganda:

Qo'shiqlar to'qisam - no'noq bo'lmasa, sendan o'zga dilga qo'noq bolmasa! (Mirtemir) Jismimiz yo'qo lu r- o'chmas nomimiz. (H.Olimjon)

Husn to'yda kerak - muhabbat kunda kerak. (Maqol) Ustidan achchiq-achchiq choy ham ichdi - bo'lmadi. (Oydin) It huradi – karvon otadi (Maqol);

- ohang yordamida birikkan qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish, qiyoslash munosabati bo'lganda: Yurgan daryo – otirgan bo'yra. (Maqol) Xatingni o'qidim - o'zingni ko'rdim. (H.Olimjon) Qor yog'di - don yog'di. (Maqol)

### Nuqtali vergul:

- qismlari ohang yordamida birikkan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar ohang jihatidan nisbatan mustaqil bo'lgan gaplar orasida vergulga qaraganda kattaroq to'xtam bo'lganda: Vaqt xuftondan otgan; juvozxonada chiroq ko'rindi. (Oybek) Kim biladi, o'g'li ham otasi haqida shunday o'ylasa kerak; u otasini zarracha hurmat qilmasdi (N.EshonquI);

- qo'shma gap qismlari ohang yordamida birikib, gap tarkibida bir necha tinish belgilari ishlatilgan yoki gaplar orasida qiyoslash munosabati bo'lganda: Istiqloq davri bolalari g'ayratli, shijoatli; ko'zida chaqini, ko'ksida yolqini bor. (D.Rajab) She'r shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. (A.Oripov) Rasmda chol nima demoqchiligini tushunmasam- da, lekin yigitning yuzidagi ishonchdan hayratga tushdim; qizg'ish va javdari bo'yoq yigitning ko'nglidagi hissiyotni to'la aks ettira olgan edi. (N.EshonquI)

Ba'zi manbalarda qismlari ohang yordamida birikkan qo'shma gaplarda nuqtali vergulning ishlatilishi «...gaplar mazmunan yaqin bo'lmaganda...» deb ham qoidalashtiriladi. Ma'lumki, qo'shma gaplar ma'no, ohang va grammatik jihatdan birikkan sintaktik qurilma; ular orasida har doim ham mazmuniy bog'liqlik bo'ladi. Bugungi kunda qo'shma gap qismlarining nuqtali vergul bilan ajratilishi, asosan, murakkab qo'shma gaplar tarkibida ohang jihatidan biroz mustaqil bo'lgan gaplardan so'ng kuzatilmoqda: Cholning suratlari go'yo sirli qo'rg'on edi; cholning ilk suratini ko'rgan daqiqadayoq bu qo'rg'on. da kirib qolgandim va uning suratlaridan qolgan sovuq hissiyot bilan birga yuragim g'ash bo'lib yurishining sababini topganday bo'ldim. (N.EshonquI)

Ko'chirma gapli qo'shma gaplar ikki qismdan - ko'chirilgan gap va muallif gapidan tashkil topadi. Ko'chirma gap muallif gapidan oldin yoki keyin, muallif gapining ichida, muallif gapi ko'chirma gapning o'rtasida kelishi ham mumkin. Ikki nuqta, tire, vergul, nuqta, qo'shtirnoq va boshqa belgilar ko'chirma hamda muallif gaplarining o'rinlashishiga ko'ra ishlatiladi.

I. Agar ko'chirma gap muallif gapidan so'ng kelsa, undan oldin ikki nuqta qo'yiladi. Ko'chirma gap bayon, hikoya tarzidagi matnlarda qo'shtirnoq bilan, badiiy asarlarda ko'pincha tire bilan ajratiladi:

[Mg: «Kg...»]

Ravshanbek aytdi: «...Sizlar mening ko'zimni boylab haydab keldinglar. Endi mening ko'zimni ochsanglar... men ham yorug' dunyoni ko'rsam...» («Ravshan»)

[Mg:-Kg.]

Onam qad rostlab ulgurmay otamga iltijo qildilar: - Ostiga taxta qoqtiraman, iflos qilmaydi. (X.Do'stmuhammad)

II. Agar ko'chirma gap muallif gapidan oldin kelsa, ko'chirma gapdan so'ng gapning ifoda maqsadi, mazmunidan kelib chiqib vergul, so'roq, undov belgisi yoki ko'p nuqta, qo'shaloq tinish belgilaridan biri, keyin tire qo'yiladi va muallif gapi kichik harf bilan boshlanadi. Bu tartibda o'rinlashgan gaplar, asosan, dialoglarda uchraganligi uchun, ko'pincha qo'shtirnoqqa qaraganda tirening ishlatilishi, ba'zan muallif gapining qo'llanmasligi ham kuzatiladi:

1. Ko'chirma gap darak gap bo'lganda ko'chirma gapdan so'ng vergul qo'yiladi:

**[- Kg, - Mg.]**

- Voy-bo'y, yomon isib ketibdi-ku, - dedi u ichkari kirgan zahoti. (X.Sultonov)

2. Ko'chirma gap so'roq gap bo'lganda ko'chirma gapdan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi:

**[-K g ? -M g.]**

- Otangga achindingmi? - uni qiyin vaziyatdan xalos etish niyatida so'radi Fozilbek. (X.Do'stmuhammad)

3. Ko'chirma gap his-hayajon gap bo'lganda ko'chirma gapdan so'ng undov belgisi qo'yiladi:

**[«Kg!» - Mg.]**

«Shahodat, zerbabarini xo'p keltirasan-da. Pulemyotday o' qiyman xatingni!» - derdi har yozganida. (O'.Umarbekov)

**[-Kg!...-Mg.]:**

- Yuragim uyushib ketdi!.. - dedi Qadriya. (X.Do'stmuhammad)

4. Ko'chirma gap mazmunan tugallanmay qolganda ko'p nuqta ishlatiladi:

**[-Kg ...-M g.]**

- Javob bersangiz... Ganjiravonga ketsam... Bitta go'rga bitta pichoq emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelaman... - dedi. (A.Qahhor)

- Endi bizga juda qiyin bo'ldi-da. Peshonam sho'r bo'lmasa... - dedi cholyerga qarab. (A.Qahhor)

5. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinganda so'roq, undov belgilari, ko'p nuqta, qo'shtirnoq ichida, nuqta, vergul kabi belgilar qo'shtirnoqdan so'ng qo'yiladi:

**[Mg: «Kg!»]**

Shu topda cholga ikki dunyo bir, yakkash baqiradi: «Osmoningdan ne foyda menga! Javdiragan tuzsiz yulduzlaringni boshimga uramanmi? E, seni o'qitganning padariga la'nat!» (N.Norqobilov)

"tTtL." Muallif gapi ko'chirma gapning o'rtasida kelganda tinish belgilari quyidagi tartibda bo'ladi:

1. Ko'chirma gap sodda gap bo'lib, uning uzilib qolgan qismida hech qanday tinish belgisi ishlatilmagan bo'lsa, vergul va tire qo'yilib, muallif gapi kichik harf bilan

boshlanadi, undbn so'ng yana vergul va tire qo'yilib, ko'chirma qap kichik harf bitari davom ettiriladi:

**[- Kg, - Mg, - Kg.]**

- Qaldirg'och-chi, - dam hayajonlanib, dam bosiq davom etdi>hikoyasida Qadriya, - uyasining devoriga ikki qator toy uradi, loyining nami ketib quriguncha sabr qiladi-da, loy oqarib xom sopol tusiga kirgunicha yana loy tashishga kirishadi. (X.Do'stmuhammad)

2. Ko'chirilgan gap qo'shma gap bo'lib, uning -tazilib qolgan joyrda vergul yoki boshqa tinish belgisi bo'lganda ham tintsh belgilari yuqoridagi tartibda djo'yiladi:

**[- Kg, - Mg, - Kg.]**

- Kat bo'lmang, - dedi pulni uzatib, - yana xizmatingizdaman. (A.Qahhor) <<So'z san'atining qudrati shundaki, - deydi Asqad Muxtor, - и hayotda aynan bo'lmagan narsalarga, hodisalarga jon kiritib yuboradi>>.

3. Ko'chirma gap mustaqil gaplardan iborat bo'lib, uning uzilib qolgan joyida nuqta, so'roq yoki undov kabi gap oxida ishlatiladigan belgilardan biri qo'yilgan bo'lsa, undan so'ng tire qo'yilib, muallif gapi kichlk harf bilan boshlanadi va oldingi gapning mustaqil gapligiga ishora tarzida nuqta qo'yiladi. So'ng yana tire qo'yilib, ko'chirma gap bosh harf bilan davom ettiriladi:

**[- Kg, - Mg, - Kg.]**

- Yo'q, - dedi o'g'il qat'iy. - Bu xilishlardan jirkanaman\ (N.Norqobilov)

**[- Kg? - Mg. - Kg?]**

- Jirkanaman? - Shayman chol battar tutaqib, tag'in qo'llari bilan paypasladi. - Unda olimligingdan menga nima foyda? (N.Norqobilov)

IV. Ko'chirma gap muallif gapining o'rtasida kelganda **tinish** belgilari quyidagi tartibda ishlatiladi:

**[M g :-K g ,-M g .]**

Islomboy bor kuch-quvvatini to'plab: - Mening to'rt tangayam beroladigan qudratim yo'q, - dedi, (X.Sultonov) Shunda bir kishi pichog'ini qinidan sug'urib: <<Men sanchib kelaman >>, - debdi. (A.Qahhor)

**[Mg: «Kg», - Mg.]**

Unda parilar: <<Juda yaxshi bo'ldi-da. Bizlarga ham bu so'zingiz yoqdi, yaxshi aytdingiz bu gapdi>>, - deyishib quvonishib qoldi. («Ravshan»),

**[Mg: «Kg!» - Mg...]**

Urmia... baqirib: <<O'likning joni yo'q, o'likning joni yo'q!>> – deb olg'a intildi... (A.Qahhor)

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, keyingi yillarda yaratilgan ba'zi asarlarda ko'chirma gapli qo'shma gaplar doirasida ham muallif individualligiga keng imkon berish oqibatida nafaqat erkinlikka intilayotgan she'riyat, balki nasriy asarlarda ham

tinish belgilaridan foydalanishda mavjud me'yorlarga qat'iy amal qilinmayotganligi kuzatiladi

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahriddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. –Toshkent: Akademi-nashr, 2015.—65 b.
2. Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации.—М., 2004.
3. Валгина Н.С. Русская пунктуация: принципы и назначение. – М., 1979.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.—Toshkent: O'zME, 2013.
5. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. – Toshkent, O'qituvchi, 1976.
6. Shoabdurahmonov Sh. Punktuatsiya asoslari. Toshkent, 1953.
7. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek tilida punktuatsiya. Toshkent, 1955.
8. G'oziyev H. O'zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 1979